

## SENSIBILIZATSILANGAN FOTOSAMARADA KVANT CHIQISHI

**Kamolova Muhabbatxon Muhiddin qizi**  
*Farg'ona davlat universiteti*

**Annotatsiya:** Sensibilizasiyalangan fotosamara jarayonida kvant chiqishi kataligi nazariy va amaliy jihatdan muhim harakterga ega hisoblanadi. Ammo kvant chiqishini emulsiyali fotografiya jarayonida yoki dispersiyali fotootkazgichlar rang bilan adsorbsiyalanganda aniqlash ma'lum bir qiyinchiliklarga olib keladi. To'g'ridan-to'g'ri kvant chiqish kattaligini sensibilizasiyali fotografiyada emusiya namunalarida (yupqa pardalarda) va fotolizning ADVG kukunida aniqlash uchun kumush va bromning yuqori intensivlikda yoritilganda ajralib chiqishini o'lchashga asoslangan.

**Kalit so'zlar:** Sensibilizasiyalangan fotosamara, kvant chiqishi, spektral sensibilizatsiya, sensibilizasiyaning effektivligi, fotografiya

Ba'zi bir qiyinchiliklarga qaramasdan o'lchashlarda yaxshi sensibilizatorlardan foydalanilganda kvant chiqishi birga yaqinlashgani ma'lum. Fotografik emussiya normal holatda ekvipazisiyalanganda absolyut qiymati o'zgarmaydi, balki sensibizasiyada kvant chiqishining nisbiy qiymati  $\Im_{\lambda}$  aniqlanadi, bunda hususiy sohadagi fotonlar yutilish sonini bir zichlikda qoraytirilgan holda sensibilizasiyalangan sezgirlik nisbati olinadi. Ma'lumki, bo'limgan emulsiyalangan hususiy sohadagi sezgirlik uchun kvant chiqish birga yaqin bo'ladi, demak  $\Im_{\lambda}$  bu holda sensibilizasiyalangan jarayondagi  $\Im$  ga yaqin qiymatli bo'lishi kerak. Ammo ko'pchilik ranglar effektiv spektral sensibilizasiya bir qatorda kimyoviy sensibilizasiyani yuzaga keltiradi.

Spektral sensibilizatsiyada fotografik sezgirlik effektivligini ( $SR_c$ ) belgilaymiz Galoid kumushdagi emissiyada desensibilizatsiya hisobga olingandagi qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi

$$SR_c = 100 \left\{ \left[ \left( 1 - \lg E_{0.3}^{\lambda} \right) - \lg P_{\lambda} AbS_{\lambda} \right] - \lg \left[ \frac{E_{0.3 \text{ (bo'linmagan)}}^{365}}{E_{0.3 \text{ (bo'lingan)}}^{365}} \right] \right\} \quad (1)$$

Formulada  $E_{0.3}^{\lambda}$  va  $E_{0.3}^{365}$  yoritishi miqdori yani emulsiya qoraytirilgan zichlikni hosil qilish uchun kerak bo'lган yorituvchanlik yoruqlik filtridan so'ng 0,3 da  $\lambda \supset 510 \text{ nm}$  va  $\lambda = 365 \text{ nm}$  mos ravishda  $R_{\lambda}$  - tushayotgan fotonlar soni,  $ABS_{\lambda}$  -  $\lambda_{max}$  qiymatda bo'yox tomonidan yutilayotgan fotonlar soni, u sensibilizasiyalangan sezgirlikni maksimumiga to'g'ri keladi.


Sensibilizasiyaning effektivligi kvant kattaligi turli xil ranglarda juda kichik qiymatdan bиргача о'згаради. U yutilish yo'larida farq qiladi va rangning agregat xolatiga bog'liq. Eng yaxshi sensibilizasiyalarda M-yo'lida  $\Im_{\lambda}$  birga yaqinlashadi J-yo'lida esa juda kichik

qiymatni, ammo supersensibilizator qo'shimcha nisbiy kvant chiqish birga yaqinlashishi mumkun. Boshqa yo'larda (H,D) nisbiy kvant sezilarli darajada kichik qitmatga ega.

Hozirgi vaqtida asosan kvantlarning effektiv sensibilizasiyasi 0,8-0,9 bo'lgan sensibilizatlar amaliy ravishda qo'laniadi. Sensibilizatsiyali fotoeffektni tekshirish natijasida kvant chiqish kattaligini aniqlash imkoniyatlari kengaydi judda kam yoritilish natijasida fotojarayondagi kvant chiqishini o'lhash mumkin bo'ldi(fotolizdan tashqari).

Rasm-1  $Z_nO$  uchun ichki fotosamaradagi kvant chiqishi spektri keltrilgan.

1-Xususiy yutulish sohasi. 2-tripaflavin rangi bilan sensibilizasiyalangan soha. 3-



fluoresensiya sohasi. 4-eritrazin bilan sensibilizasiyalangan soha.

Sensibilizatsiyali fotoeffektda absolyut kvant chiqishini birinchi marta rux oksidi bog'lovchisida aniqlangan. O'lhashlar kuchlanish orqali to'yingach fototokdagi elektrofotografiya rejimda amalga oshirilgan. Uch hil rang bilan sensibilizasiyalangan namunalardagi o'lhash natijalari 1-rasmida keltrilgan

Ko'rinib turibdiki sensibilizasiyalangan sohadagi kvant chiqish  $Z_n$ oni xususiy yutilish sohasiga yaqin, yani birga yaqin.

Sensibilizasiyalangan fotosamarada bo'yalgan namunalardagi fotootkazuvchanlikni tekshirish uchun kvant chiqishini samaradorligini quydagicha aniqlanadi  $\varphi_c \frac{\sigma_\Phi^k}{\sigma_\Phi}, \frac{\alpha_k}{\alpha_c}$

Formulada  $\sigma_{\Phi}^k$  va  $\sigma_c^c$ -bir xil sondagi kvant tushayotgandagi sensibilizatsiyadagi fotoo'tkazuvchanlik maksimum va hususiy yutilishi  $\alpha_k$  va  $\alpha_c$ -mos to'lqin uzunlikdagi yorug'likni rang tomonidan va fotoo'tkazgichdagi yutilish hissasi  $\varphi_c$  ni aniqlash uchun bo'yagan namunani yutilishini va fotoo'tkazgich spektorini o'lchash yetarli.

Ko'pchilik monokristalar monoqatlam bilan bo'yagan adsorbsiyalangan namuna sirtidagi fotosamarada yutulish sohasida kvant chiqish samaradorligi 0,6-0,8 ga teng bo'ladi. Eng yaxshi sensibilizasiyalarda  $\varphi_c$  yuqori bo'lib 0,6 dan 1,0 gacha natija berdi.

Qalin qatlamlili fotoo'tkazgich pardalarda optimal konsentrasiyali ranglar bilan sensibilizasiyalangan odatda  $\frac{\alpha_k}{\alpha_c} = 0,25-0,3$  teng shuning uchun fotoo'tkazuvchanlik spektorini o'lchab  $\varphi_c$  yaqinlashishi asosida quyidagicha aniqlanadi, yani

$$\varphi_c = \frac{\sigma_{\Phi}^k}{\sigma_c^c} (0.25-0.3) \quad (2)$$

Sensibilizasiyali fotosamara ko'ra sensibilizasiya sohasidagi fotojarayonda kvant chiqish murakab spektral bog'lanishli bo'lgani uchun rangning spectral xususiyati va fotoo'tkazgich xususiyati etiborga olinib hisoblanadi.

Fotoo'tkazgichning spektral maksimal  $\sigma_{\Phi(\lambda)}$  uchta to'lqin uzunliga bog'liq ravishta aniqlanadi, yani

$$\sigma_{\Phi}(\lambda) = C\varphi_c(\lambda)\varphi_2(\lambda)\varphi_3(\lambda) \quad (3)$$

bu yerda C-konstanta.

Birincni had  $\varphi_1(\lambda)$  pardadagi spektr yutilishi bo'lib, qatlam bo'yagan fotometrik sharda spektordan qaytgan R(X) nurni o'lchash orqali topiladi, yani  $\varphi_1(\lambda) = 1 - R(X)$

U xolda  $\varphi_c = \frac{\sigma_{\Phi}(\lambda)}{\varphi_1(\lambda)} = C\varphi_2(X)\varphi_3(\varphi)$  bo'ladi va sensibilizasiyali fotosamarada spektroring kvant samarasini aniqlaydi. Absorbsiyalangan sensibilizator  $\varphi_2(\lambda)$  spektorining yutilishi spektri koeffitsiyenti  $\alpha(\lambda)$  o'xshash  $\alpha$  koeffsiyenti quyidagi formuladan aniqlanadi.

$$\alpha = A(\varphi - R)^2 / R \quad (4)$$

$\varphi_2(\lambda)$  had fotosamaradagi kvant chiqishni yutilish koeffsiyentiga bog'liqligini bildiradi.

$\varphi_3(\lambda) = \frac{\varphi_c}{\alpha}$  spektr rangning optik xususiyatiga bog'liq emas, u spektrning belgilangan sohada fotoo'tkazgichning sensibilizasiyalish qobiliyatini belgilaydi.

Rang bilan sensibilizasiyalanganda yutilish spektri ingichka yo'ldan iborat bo'ladi  $\varphi_1(\lambda)$  va  $\varphi_2(\lambda)$  orqali aniqlanadi  $\varphi_3(\lambda)$  sensibilizasiya spektriga ta'sir ko'rsatmaydi, chunki  $\varphi_2(\lambda)$  hadni mavjudli sababli sensibilizasiya yo'li absorbsiyalangan rangni yutilish yo'lini belgilaydi.

Rang bilan sensibilizasiyalanganda spektrning keng sohasida yutilish yo'lining to'plami hosil bo'ladi va har bir yo'lda sensibilizasiya yo'lida xosil qiladi. Ammo sensibilizasiyaning samaradorlik nisbati yutilishi maksimumlari nisbati  $\alpha_\Phi(\lambda)$  ni  $\varphi_3(\lambda)$  dan farq qilishga olib keladi.

Agar sensibilizasiyaning yutilish spektori to'lqin uzunligi bo'yicha kam o'zgarsa. Uxolda Sensibilizasiyalangan fotosamara spektri  $\varphi_3(\lambda)$  had orqali aniqlanadi. Tekshirishlar shuni ko'sadiki, olingen natijalar fotoo'tkazgichning asosiy harakteristikasi –donor sathidagi energetik taqsimotidagi sensibilizasiya spektrini aniqlar ekan. Sensibilizasiya mexanizimini aniqlash uchun, kvant chiqishidan tashqari Sensibilizasiya jarayonida har bir rang molekulasingin aktiv hisobga olish kerak.

Fotografiya jarayonida ranglarni molekulalarini jarayonda qatnashuvchi haqidagi gipotezani to'g'rilingini aniqlash malum bir qiyinchiliklarga olib keldi. Galoid kumush mikrokristalining sirtida emulsiyada  $10^5$  dona adsorsiyalangan rang malekulasi mavjud bo'lgani sababli, kumushdan ajralib chiqan atom har bir rang molekulasiga tegishli ekanligini aniqlash uchun ekvopazisiya vaqtida yuqori intensivlikda yoritilishi talab etiladi. Fotolitik brom ajralib chiqanda rang parchalanadi va demak bu reaksiyani oldini olish kerak. Bu holatda Sensibilizasiyani chiqishi 100% tashkil etadi, demak rang molekulasi sensibilizasiya jarayonida ko'p marta ishtirok etadi.

**Sensibilizasiyalı fotosamara jarayonida Sensibilizasiya chiqishini oson yechish** uchun rangning sensibilizasiyalangan yutilishi yo'lini uzoq vaqt intensiv yoritilish lozim, namunada yorug'lika chidamli Sensibilizasiyalangan fotoo'tkazgich namunasidagi fotoo'tkazuvchanlik fotolizga uchramay o'zgarmaydi. Natijada elektrofotografik namuna yorug'lik tasirida ham o'z hususiyatini saqlab qoladi.

Demak har bir rang molekulasi jarayonida ko'p marta shitirash etsa ham parchalanmaydi va Sensibilizasiya ostida eksrakini davom ettira veradi.

Ammo Sensibilizasiyalangan namunalarda rang oksidlansa, ikkilamchi reaksiya amalga oshib parchalanish yuzaga keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Akimov, Z.A.Gaziyev, K.B.Demidov "Elektron lokal holatlarni aniqlash usullari". Lelingrad. 1985 yil.
2. A.Akimov, Z.A.Gaziyev .'Polimerlarda sensibilizatsiyali fotoeffekt". Moskva, JNiFK, 1984 yil,6 tom.

3. Bartenev G.M, Frenkel S.Ya. Fizika polimer. Ximiya, 1990 yil.
4. Elektron darslik. Giant Molecules. A.R.Xoxlov, A.Yu.Grosberg. New-York, 2002 yil.
5. Kamolova, M. M., & Usmonov, I. M. (2022). INVESTIGATION OF PHOTOELECTRIC PROPERTIES OF THIN FILMS BASED ON CDTE. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(5), 241-244.
6. Kamolova, M. M., & Usmonov, I. M. (2022). INVESTIGATION OF PHOTOELECTRIC PROPERTIES OF THIN FILMS BASED ON CDTE. *THEORY AND ANALYTICAL ASPECTS OF RECENT RESEARCH*, 1(5), 241-244.
7. Камолова, М. (2022). МЕХАНИЗМ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ НОСИТЕЛЕЙ ЗАРЯДА С ЗАРЯЖЕННОЙ ГРАНИЦА КРИСТАЛЛИТОВ В ПОЛИКРИСТАЛЛАХ МЕТОДОМ ИЗУЧЕНИЯ ПОПЕРЕЧНОГО ЭФФЕКТА НЕРНСТА-ЭТТИНГСГАУЗЕНА. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10), 129-134.
8. Собиров, М. М. (2021). ИЗМЕРЕНИЕ ПОЛЯРИЗАЦИЯ СВЕТА В ЧИСТОЙ АТМОСФЕРЕ. *EDITOR COORDINATOR*, 308.
9. Muhabbatxon, K. (2022). POLIMER YARIM O'TKAZGICHLARDA YUTILISH SPEKTRI SEZGIRLIGNI UZUN TO'LQIN METODI BILAN ANIQLASH. *PEDAGOG*, 1(3), 248-256.
10. Kamolova, M. (2022). POLIMERLARDA KVANT CHIQISHI. Физико-технологического образования, (5).
11. Dehqonova, Oxistaxon Qosimjonovna, & Kamolova, Muhabbatxon Muhiddin Qizi (2023). UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA FIZIKA FANINING MEXANIKA BO'LIMINI O'QITISHDA NAMOYISH EKSPERIMENTLARINING O'RNI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3 (3), 1250-1256.